

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**

25-avgust 2026-yil

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga
kirish imtihoni dasturi**

TOSHKENT – 2026

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi (2026-yil 25-avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar: **f.f.d., prof. Sh. Sirojiddinov**
 f.f.d., prof. U.Jo‘raqulov
 DSc, prof. N.Normurodova
 PhD, dotsent M.Asadov
 PhD, dotsent G.Mamarasulova

KIRISH

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi mazkur hududlarda shakllangan tillar va adabiy jarayonlarning tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari hamda zamonaviy xususiyatlarini kompleks oʻrganishga yoʻnaltirilgan filologik yoʻnalishdir. Ixtisoslik doirasida tillarning genealogik va tipologik xususiyatlari, fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik, stilistik va pragmatik tizimi, til variativligi va rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek, mazkur xalqlar adabiyotining tarixiy bosqichlari, adabiy oqim va yoʻnalishlari, janrlar tizimi, poetikasi hamda individual ijodkorlarning badiiy-estetik qarashlari oʻrganiladi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari tarixiy, ijtimoiy-madaniy va estetik jarayonlar bilan uzviy bogʻliq holda tadqiq etiladi.

Zamonaviy filologiya sohasida mazkur ixtisoslik doirasi tarixiy-qiyosiy, struktur, funksional, tipologik, kognitiv, kommunikativ-pragmatik, sotsiolingvistik, diskursiv va korpusga asoslangan yondashuvlar bilan boyib bormoqda. Adabiyotshunoslikda tarixiy poetika, germevtika, narratologiya, strukturalizm va semiotika kabi anʼanaviy hamda zamonaviy nazariy yondashuvlar badiiy asarning mazmuni, shakli, poetikasi va talqin jarayonini chuqur oʻrganish imkonini beradi. Shu bilan birga, poststrukturalizm, postkolonial adabiyotshunoslik, gender tadqiqotlari, xotira va identitet masalalari, ekologik adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, jahon adabiyoti va raqamli gumanitar tadqiqotlar zamonaviy adabiy jarayonni yangi nazariy nuqtayi nazarlardan oʻrganish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Yevropa, Amerika va Avstraliya adabiyotlarini tadqiq etishda milliy adabiy jarayon bilan bir qatorda tarixiy-madaniy aloqalar, adabiy taʼsir va aloqadorlik, identitet, migratsiya, mustamlakachilik va globallashtirish kabi jarayonlarning badiiy tafakkur hamda adabiy-estetik qarashlarga taʼsirini hisobga olish muhimdir. Oʻzbek adabiyotshunosligida shakllangan tarixiy-tipologik, manbashunoslik va matnshunoslik tajribasi esa mazkur jarayonlarni chuqurroq anglash uchun muhim ilmiy asoslardan biridir.

FANNI OʻZLASHTIRISHGA QOʻYILGAN TALABLAR

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi boʻyicha tayanch doktorant:

- ixtisoslikning nazariy-metodologik asoslari, predmeti va ilmiy chegaralarini puxta bilishi;
- Yevropa, Amerika va Avstraliyada shakllangan tillarning tarixiy taraqqiyoti, genealogik va tipologik xususiyatlari haqida tizimli bilimga ega boʻlishi;
- ingliz tilining qadimgi, oʻrta, ilk yangi va zamonaviy rivojlanish bosqichlarini, fonetik-fonologik, leksik, grammatik va semantik oʻzgarishlarini tahlil qila olishi;
- zamonaviy tilshunoslikning struktur, funksional, kognitiv, kommunikativ-pragmatik, sotsiolingvistik, diskursiv va korpusga asoslangan yondashuvlarini tushunishi va tegishli tadqiqotlarda qoʻllay olishi;

- Yevropa, Amerika va Avstraliya adabiyotining asosiy tarixiy davrlari, adabiy oqimlari, janrlari, ijodiy metodlari va yirik namoyandalari tizimli bilishi;
- o'zbek adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari, yirik namoyandalari va adabiy an'analari, shuningdek, milliy adabiyotshunoslikning tarixiy-tipologik, manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishlarini bilishi;
- badiiy asarning mavzu, g'oya, syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi, poetika, uslub va janr xususiyatlarini ilmiy tahlil qila olishi;
- adabiyot nazariyasining tarixiy poetika, germenevtika, narratologiya, strukturalizm, semiotika, poststrukturalizm, postkolonial adabiyotshunoslik, gender va madaniy tadqiqotlar kabi asosiy yo'nalishlarini anglab, ularning metodologik imkoniyatlarini baholay olishi;
- Yevropa, Amerika va Avstraliya adabiyotlarini tarixiy-madaniy, ijtimoiy, estetik va jahon adabiy jarayoni bilan bog'liq holda talqin qila olishi;
- ilmiy tadqiqotning obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, ilmiy muammosi va tadqiqot savolini mustaqil shakllantira olishi;
- tadqiqot maqsadiga muvofiq nazariy-metodologik yondashuv va ilmiy metodlarni tanlay va asoslay olishi;
- ilmiy manbalarni izlash, saralash, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy argument yaratishda ulardan to'g'ri foydalanishi;
- lingvistik va badiiy materialni mustaqil tahlil qilish, dalillarni tizimlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda korpus, elektron va raqamli manbalardan foydalanishning asosiy tamoyillarini bilishi;
- o'z ilmiy qarashlarini mantiqiy, izchil va akademik uslubda og'zaki hamda yozma bayon qila olishi;
- ilmiy munozarada o'z pozitsiyasini dalillar asosida himoya qila olishi va muqobil ilmiy qarashlarni tanqidiy baholay olishi kerak.

DASTURNING MAZMUNI

Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyotini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari. Yevropa, Amerika va Avstraliya hududlarida shakllangan tillar va adabiyotlarning tarixiy, nazariy va ilmiy o'rganilishi. Til va adabiyotning filologik tadqiqotdagi o'zaro aloqasi. Tilning tizim sifatidagi mohiyati, til va nutq, til va tafakkur, til va jamiyat munosabati. Sinxron va diaxron, tarixiy-qiyosiy, strukturaviy, funksional va tipologik yondashuvlarning til va adabiyot tadqiqotlaridagi o'rni. Til tizimi va til birliklari, paradigma va sintagma, til taraqqiyotining ichki va tashqi omillari.

Yevropa tillarining genealogik tasnifi va tarixiy taraqqiyoti. Hind-yevropa tillari oilasi va uning asosiy tarmoqlari. German, roman, slavyan, kelt va boshqa Yevropa tillarining shakllanishi va tarixiy rivoji. Qarindosh tillarning umumiy va farqli jihatlari, genealogik va tipologik tasnif tamoyillari. Til taraqqiyotining ichki va tashqi omillari. Qiyosiy-tarixiy metod, tarixiy

rekonstruksiya, fonetik va grammatik muvofiqliklar. Yevropa tillarining o‘zaro aloqalari, til kontakti, o‘zlashuv, substrat, superstrat va adstrat hodisalari.

German tillari va ularning tarixiy taraqqiyoti. German tillari oilasining shakllanishi, umumiy xususiyatlari va tarixiy rivojlanishi. Sharqiy, g‘arbiy va shimoliy german tillari guruhlar. Ingliz, nemis, niderland, shved, daniya, norveg va boshqa german tillarining tarixiy o‘rni. German tillaridagi fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlar. Grimm va Verner qonunlari, german tillaridagi undoshlar almashinuvi va tarixiy fonetik o‘zgarishlar. German tillarining o‘zaro qarindoshligi va umumgerman tilining rekonstruksiya masalalari.

Roman tillari va ularning tarixiy taraqqiyoti. Lotin tilining Yevropa tillari tarixidagi o‘rni. Lotin tilining rivojlanishi va roman tillarining shakllanish jarayoni. Fransuz, ispan, italyan, portugal, rumin va boshqa roman tillarining asosiy xususiyatlari. Roman tillarida fonetik, grammatik va leksik o‘zgarishlar. Lotin tilidan meros bo‘lib qolgan qatlam va boshqa tillardan o‘zlashmalar. Roman tillarining dialektal bo‘linishi va milliy adabiy tillarning shakllanishi, shuningdek, roman tillarining Yevropa madaniyati va adabiy jarayonidagi tarixiy ahamiyati.

Ingliz tilining tarixiy taraqqiyoti. Ingliz tilining german tillari tizimidagi o‘rni va uning shakllanish bosqichlari: qadimgi ingliz tili, o‘rta ingliz tili, ilk yangi ingliz tili va zamonaviy ingliz tili. Anglosaks qabilalarining Britaniya hududiga kelishi, norman istilosi va uning ingliz tili rivojiga ta’siri. Skandinav, fransuz va lotin tillarining ingliz tili lug‘at tarkibi va grammatik tizimiga ta’siri. Ingliz tilining flektiv xususiyatlardan analitik tuzilishga o‘tishi. Standart ingliz tilining shakllanishi, London lahjasining me’yorlashuvdagi o‘rni va matbaa taraqqiyotining tilga ta’siri.

Ingliz tilining fonetik-fonologik tizimi va tarixiy fonologik o‘zgarishlar. Ingliz tilining fonematik tizimi, fonema va allofon, fonologik qarama-qarshiliklar hamda fonemalarning distributiv xususiyatlari. Unli va undoshlar tizimining strukturaviy xususiyatlari; bo‘g‘in, urg‘u, ritm va intonatsiyaning ingliz tilining fonologik tashkil topishidagi o‘rni. Qadimgi, o‘rta va zamonaviy ingliz tili fonologik tizimining asosiy o‘zgarishlari; Buyuk unli tovushlar siljishining sabablari, bosqichlari va ingliz tili tarixiy fonologiyasidagi ahamiyati. Ingliz tilida fonetik va fonologik o‘zgarishlarning neytrallashuv, reduksiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya va analogiya kabi jarayonlari. Urg‘u va intonatsiyaning fonologik hamda kommunikativ funksiyalari, zamonaviy ingliz tilining asosiy talaffuz me’yorlari va Britaniya, Amerika hamda Avstraliya ingliz tillaridagi fonetik-fonologik farqlar.

Ingliz tilining morfologik va sintaktik tizimi. Ingliz tilining morfologik va sintaktik qurilishining tarixiy shakllanishi va tipologik xususiyatlari. Morfema, morf, allomorf, grammatik shakl va grammatik kategoriya tushunchalari; ingliz tilida morfologik va analitik vositalarning o‘zaro munosabati. Ot, fe‘l, sifat, olmosh va boshqa so‘z turkumlarining morfologik xususiyatlari hamda ularning grammatik kategoriyalari. Ingliz tilida zamon, aspekt, nisbat va mayl kategoriyalarining shakllanishi va funksional xususiyatlari. Sintaktik birliklarning iyerarxik tashkil topishi, so‘z birikmasi va gapning strukturasi, sintaktik munosabatlar, so‘z tartibi va gapning kommunikativ tuzilishi. Analitizm va

flektivlik nisbati, grammatiklashuv, morfologik soddalashuv va sintaktik qayta qurilish jarayonlarining ingliz tili tarixiy taraqqiyotidagi namoyon bo'lishi. Qadimgi, o'rta va zamonaviy ingliz tili grammatik tizimining qiyosiy xususiyatlari.

Ingliz tili leksikologiyasi, frazeologiyasi va so'z yasalishi. Ingliz tili lug'at tarkibining tarixiy shakllanishi, tarkibiy qatlamlari va zamonaviy rivojlanish qonuniyatlari. Qadimgi german leksik qatlamining xususiyatlari, lotin, fransuz, skandinav va boshqa tillardan o'zlashgan birliklarning ingliz tili lug'at tarkibidagi o'rni hamda o'zlashmalarning fonetik, semantik va funksional moslashuvi. Leksema, leksik ma'no, semantik tuzilma va leksik-semantik munosabatlar; sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya va leksik-semantik maydon tushunchalari. Frazeologik birliklarning tabiati, struktur-semantik xususiyatlari, turg'un birikmalar va ularning milliy-madaniy mazmuni. Ingliz tilida affiksatsiya, so'z qo'shish, konversiya, qisqartirish va boshqa so'z yasalish usullari; so'z yasalish modeli va mahsuldorligi. Terminologik leksikaning shakllanishi, neologizmlar, o'zlashmalar va globallashuv ta'sirida ingliz tili lug'at tarkibining yangilanish jarayonlari.

Ingliz tilining semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlari. Leksik va grammatik ma'no, denotativ va konnotativ ma'no, semantik munosabatlar hamda ma'noning kontekstual shakllanishi. Leksik ma'noning tarixiy o'zgarishi va uning asosiy turlari: ma'no kengayishi, torayishi, yaxshilanishi, yomonlashishi, metaforik va metonimik ko'chishi. Til birliklarining kommunikativ vaziyat, so'zlovchi maqsadi va kontekst bilan bog'liq pragmatik xususiyatlari. Nutq aktlari, presuppozitsiya, implikatura, deiksis va kommunikativ maqsad tushunchalari. Ingliz tilining funksional uslublari va ularning kommunikativ vazifalari; badiiy, ilmiy, publitsistik va so'zlashuv uslublarning o'ziga xos jihatlari. Uslub va individual uslub, ekspressivlik va emotsionallik tushunchalari. Metafora, metonimiya, epitet, taqqoslash, ironiya, takror, parallelizm va boshqa stilistik vositalarning badiiy hamda kommunikativ funksiyalari.

Ingliz tilining hududiy va ijtimoiy variantlari. Ingliz tilining hududiy, ijtimoiy va funksional variativligi; adabiy til, standart til, dialekt, ijtimoiy lahja va uslub tushunchalari. Britaniya ingliz tilining tarixiy shakllanishi va asosiy hududiy variantlari. Amerika ingliz tilining shakllanish tarixi, uning britan ingliz tilidan fonetik, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan farqlanishi; Amerika ingliz tilining hududiy va ijtimoiy variantlari. Avstraliya ingliz tilining shakllanishi, rivojlanishi, o'ziga xos fonetik va leksik xususiyatlari hamda mahalliy til-madaniy muhit bilan aloqasi. Ingliz tilining mustamlakachilik, migratsiya va globallashuv jarayonlari natijasida tarqalishi va jahon ingliz tilining shakllanishi. Milliy va hududiy variantlarning me'yor, identitet va kommunikativ vazifalari. Ikki tillilik, ko'p tillilik, kod almashinuvi va kod aralashtirish, tilning ijtimoiy identitet, guruh mansubligi va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi roli.

Antik yunon va Rim adabiyoti shakllanishi, janrlari va poetik tizimi. Qadimgi yunon adabiyotining mifologik tafakkur asosida shakllanishi, og'zaki ijod an'analarning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o'rni va antik adabiyotning davrlashtirilishi. Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlarida qahramonlik eposining poetik xususiyatlari, epik tasvir, qahramon konsepsiyasi, mif va tarixiy

xotira munosabati. Yunon lirikasining shakllanishi, lirik janrlarning asosiy ko'rinishlari va Safo, Arxilox kabi ijodkorlarning adabiy jarayondagi o'rni. Tragediya va komediyaning mustaqil janr sifatida shakllanishi; Esxil, Sofokl, Evripid va Aristofan ijodida konflikt, qahramon, taqdir va inson masalalarining badiiy talqini. Rim adabiyotida yunon adabiy an'alarining o'zlashtirilishi va qayta talqin qilinishi; Vergiliy, Goratsiy va Ovidiy ijodining Rim adabiy-estetik tafakkuridagi o'rni. Antik adabiyotning Yevropa adabiyoti janr tizimi, poetikasi va estetik tafakkuri shakllanishiga ta'siri.

Antik adabiyot nazariyasi va poetik tafakkur. Antik davrda san'at va badiiy ijodning tabiati haqidagi falsafiy-estetik qarashlarning shakllanishi. Aflotunning san'atga taqlid sifatidagi munosabati, shoir va badiiy ijod haqidagi qarashlari, san'atning bilish va tarbiyaviy vazifasi masalalari. Aristotelning "Poetika" asarida taqlid, badiiy yaxlitlik, syujet, xarakter, fojiaiy konflikt va katarsis tushunchalarining nazariy talqini. Epik, lirik va dramatik shakllarning o'ziga xosligi, tragediyaning tarkibiy qismlari va dramatik harakatning qurilishi. Goratsiyning "She'riyat san'ati" asaridagi adabiyotning estetik va tarbiyaviy vazifalari haqidagi qarashlari. Antik poetika tamoyillarining Uyg'onish, klassitsizm va keyingi Yevropa adabiy-estetik tafakkuriga ta'siri.

O'rta asrlar Yevropa adabiyoti: dunyoqarash, janrlar va poetika. O'rta asrlar Yevropa adabiyotining tarixiy-madaniy va diniy-falsafiy asoslari, xristian dunyoqarashining badiiy tafakkur va obrazlar tizimiga ta'siri. Qahramonlik eposi, ritsarlik romani, diniy-didaktik va allegorik adabiyotning shakllanishi hamda ularning janriy xususiyatlari. "Beovulf", "Roland haqida qo'shiq", "Nibelunglar qo'shig'i" kabi epik yodgorliklarda qahramonlik, sadoqat, burch, taqdir va jamoaviy qadriyatlar talqini. Ritsarlik adabiyotida muhabbat, jasorat va ideal qahramon konsepsiyasining shakllanishi. Diniy ramz, allegoriya va didaktik mazmunning badiiy shakl bilan munosabati. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning o'zaro ta'siri hamda o'rta asrlar adabiyotining keyingi Yevropa adabiy jarayoniga ta'siri.

Dante Aligyeri va o'rta asrlardan Uyg'onish davriga o'tish jarayoni. Dante Aligyeri ijodining o'rta asrlar va Uyg'onish davri adabiy tafakkuri tutashuvidagi o'rni. "Ilohiy komediya" dostonining kompozitsion tuzilishi, "Do'xax", "A'rof" va "Jannat" qismlarining mazmuniy-poetik yaxlitligi, uchlik tamoyili hamda ramziy-majoziy tizimi. Asarda insonning axloqiy kamoloti, gunoh va tavba, adolat, taqdir va erkin iroda masalalarining talqini. Dante ijodida antik mifologiya, xristian teologiyasi va o'rta asr falsafasining sintezi. Asarning allegoriya, ramz, intertekstual aloqa va poetik til xususiyatlari. Dantening italyan adabiy tilining shakllanishidagi o'rni va uning Yevropa adabiyoti taraqqiyotiga ta'siri.

Uyg'onish davri Yevropa adabiyoti va gumanistik tafakkur. Uyg'onish davrining tarixiy-madaniy sharoiti, gumanizmning shakllanishi, antik merosning qayta o'zlashtirilishi va inson shaxsiga bo'lgan munosabatning o'zgarishi. Uyg'onish adabiyotida inson, erkinlik, individual iroda, dunyoviy hayot va ijodkor shaxs masalalarining talqini. Italiya, Fransiya, Ispaniya va Angliya Uyg'onish adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Franchesko Petrarka lirikasida insoniy

kechinma va individual “men”ning badiiy ifodasi; Jovanni Bokkachchoning “Dekameron” asarida novella janri va dunyoviy hayot tasviri; Fransua Rable va Migel de Servantes ijodida satira, parodiya va gumanistik dunyoqarash. Servantesning “Don Kixot” romanida ritsarlik an’anasi va yangi realistik badiiy tafakkur munosabati, roman janrining keyingi taraqqiyotiga ta’siri.

Ingliz Uyg‘onish adabiyoti va dramaturgiyasining shakllanishi. Angliya Uyg‘onish davri adabiyotining tarixiy-madaniy asoslari va gumanistik tafakkurning rivojlanishi. Jefri Choser ijodining ingliz adabiy tili va milliy adabiy an’ananing shakllanishidagi o‘rni. XVI-XVII asrlar ingliz dramaturgiyasining rivojlanishi, ommaviy teatrning shakllanishi va dramaturgiyaning professional san’at sifatida qaror topishi. “Universitet ziyolilari” dramaturgiyasi, Kristofer Marlou ijodida kuchli shaxs, cheksiz intilish va fojiali konflikt konsepsiyasi. Uilyam Shekspir dramaturgiyasining shakllanishi va uning tragediya, komediya hamda tarixiy drama janrlariga qo‘shgan yangiligi. Uyg‘onish dramaturgiyasida inson tabiati, hokimiyat, axloqiy tanlov, muhabbat va shaxs erkinligi masalalarining badiiy talqini.

Uilyam Shekspir dramaturgiyasining poetikasi va badiiy tafakkuri. Shekspir ijodining tarixiy-adabiy jarayondagi o‘rni va dramaturgiyasining asosiy poetik tamoyillari. “Hamlet”, “Otello”, “Qirol Lir”, “Makbet” tragediyalarida fojiaiy konflikt, inson tabiati, axloqiy tanlov, hokimiyat va javobgarlik masalalarining talqini. Shekspir tragediyalarida qahramonning ichki dunyosi, psixologik tasvir, monolog va dialogning dramaturgik funksiyasi. “Romeo va Julyetta”, “O‘n ikkinchi kecha”, “Yoz tunidagi tush” kabi komediyalarda muhabbat, niqoblanish, yanglilash va shaxsiyat o‘zgaruvchanligi masalalarining badiiy talqini; komik konflikt, chalkashlik, tasodif va ikkiyoqlama identifikatsiyaning syujet-kompozitsion hamda obrazlar tizimidagi funksiyasi. Shekspir dramaturgiyasida ramz, kinoya, paradoks, metafora va dramatik nutqning o‘rni. Shekspir ijodining Yevropa va jahon dramaturgiyasi taraqqiyotiga ta’siri hamda uning keyingi davrlarda qayta talqin qilinishi.

XVII–XVIII asrlar Yevropa adabiyoti: klassitsizm, barokko va ma’rifatparvarlik. XVII–XVIII asrlar Yevropa adabiy jarayonining tarixiy va falsafiy asoslari. Klassitsizmning ratsionalizm, tartib, me’yor, badiiy intizom va janrlar iyerarxiyasiga asoslangan estetik tamoyillari; “uch birlik” qoidasi va uning dramaturgiyada qo‘llanishi. Per Kornel, Jan Rasin va Molyer ijodida klassitsizm poetikasining namoyon bo‘lishi. Barokko adabiyotida qarama-qarshilik, murakkab ramziylik, beqarorlik va hayot o‘tkinchiligi motivlari. Ma’rifatparvarlik adabiyotida aql, ilm, ijtimoiy taraqqiyot, axloqiy takomillashuv va inson huquqlari masalalarining badiiy talqini. Jon Milton, Jonatan Svift, Daniel Defo va Genri Filding ijodining ingliz adabiy jarayonidagi o‘rni.

XVIII asr ingliz romani va ma’rifatparvarlik nasri. Ingliz romanchiligining mustaqil janr sifatida shakllanishining ijtimoiy, madaniy va estetik omillari. Daniel Defo, Samuel Richardson, Genri Filding va Lorens Stern ijodida roman janrining shakllanishi va poetik imkoniyatlarining kengayishi. Defo asarlarida shaxs va jamiyat, mehnat va individual tashabbus; Richardson romanlarida epistolyar shakl va psixologik tasvir; Filding ijodida realizm,

kinoyaviy hikoyachilik va ijtimoiy panorama. “Robinzon Kruzo”, “Pamela”, “Tom Jonsning topilmalari” kabi asarlarda xarakter, syujet, hikoyachi, muallif pozitsiyasi va hayotiylik masalalari. Roman janrining realizm, individualizm va ma’rifatparvarlik tafakkuri bilan bog’liqligi hamda XIX asr Yevropa romanchiligi taraqqiyotiga ta’siri.

XIX asr Yevropa adabiyotida romantizm poetikasi va milliy adabiy maktablar. Romantizmning XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida shakllanishining tarixiy, ijtimoiy, falsafiy va estetik asoslari. Klassitsizm va ma’rifatparvarlik ratsionalizmiga munosabat; ijodiy erkinlik, tasavvur, hissiyot, tabiat, individuallik va romantik qahramon tushunchalari. Ideal va voqelik, shaxs va jamiyat, erkinlik va taqdir qarama-qarshiliklarining badiiy talqini. Nemis, ingliz va fransuz romantizmining umumiy va milliy xususiyatlari. Fridrix Shlegel, Novalis, E.T.A. Hoffmann, Uilyam Vordsvort, Semyuel Teylor Kolrij, Jorj Gordon Bayron, Persi Bishi Shelli, Jon Kits, Viktor Gyugo ijodida romantik poetikaning namoyon bo’lishi. Romantizmda folklor, tarix, milliy o’zlik va xalq ijodiga murojaatning badiiy-estetik ahamiyati.

Ingliz romantizmi va orientalism hodisasi: Sharq obrazining badiiy talqini. XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida ingliz adabiyotida Sharq haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va romantizm davrida rivojlanishi. Sharqning ekzotik, sirli va “o’zga” makon sifatida tasvirlanishi; Sharq va G’arb qarama-qarshiligining badiiy talqini. Jorj Gordon Bayronning “Gyaur”, “Abidoslik kelin”, “Korsar” kabi dostonlarida Sharq motivlari, obrazlari va ekzotik makon poetikasi; Persi Bishi Shelli ijodida Sharq obrazining ayrim ko’rinishlari. Romantik adabiyotda ekzotizm, stereotiplashtirish, “o’zga” obrazini yaratish va Sharq haqidagi tasavvurlarning badiiy konstruksiyasi. Edvard Saidning orientalizm konsepsiyasi asosida romantik adabiyotdagi Sharq obrazini qayta talqin qilish; orientalizm, mustamlakachilik tafakkuri, bilim va hokimiyat munosabati.

XIX asr Yevropa adabiyotida realism: adabiy oqim, estetik tamoyillar va roman poetikasi. Realizmning romantizmga munosabati, uning XIX asr ijtimoiy-tarixiy sharoitlari bilan bog’liq holda shakllanishi. Hayot haqiqatini badiiy aks ettirish, tarixiylik, tipik xarakter va tipik sharoit, ijtimoiy muhit, psixologik tahlil hamda muallif pozitsiyasi masalalari. Onore de Balzak, Stendal, Gyustav Flober, Charlz Dikens, Jorj Eliot, Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy ijodida realizmning turli ko’rinishlari. Realistik roman poetikasida syujet, xarakter, portret, makon, hikoyachi va muallif nutqining o’rni. Realizm va naturalizmning o’zaro munosabati hamda realizmning keyingi adabiy jarayonga ta’siri.

XX asr Yevropa adabiyotida modernizm: badiiy tafakkur va poetik yangilanish. Modernizmning Birinchi jahon urushi, urbanizatsiya, ilmiy-texnik taraqqiyot va an’anaviy qadriyatlar inqirozi bilan bog’liq tarixiy-falsafiy asoslari. Realistik tasvir tamoyillarining qayta ko’rib chiqilishi; subyektivlik, begonalashuv, vaqt va xotira, ichki monolog va ong oqimi kabi poetik tamoyillar. Jeyms Joys, Virjiniya Vulf, Tomas Sternz Eliot, Frans Kafka ijodida modernistik badiiy tafakkur. Mifologik usul, intertekstuallik, ko’p nuqtayi nazarlilik, ramz va badiiy vaqtning yangicha tashkil topishi. Modernizmning XX asr Yevropa va jahon adabiyoti taraqqiyotidagi o’rni.

XX asr Yevropa adabiyotida ekzistensializm, absurd va postmodern badiiy tafakkur. Ikki jahon urushi va ma'naviy inqiroz sharoitida inson mavjudligi, erkinlik, tanlov, mas'uliyat, yolg'izlik, o'lim va hayot mazmuni masalalarining adabiyotda kuchayishi. Frans Kafka, Jan-Pol Sartr, Alber Kamyu ijodida ekzistensial muammolar va absurd konsepsiyasining badiiy talqini. Absurd qahramon, begonalashuv va mavjudlikning ma'nosizligi masalalari. XX asrning ikkinchi yarmida postmodernizmning shakllanishi; metafiksiya, intertekstuallik, parodiya, pastish, janrlar qorishuvi, fragmentarlik va ko'p ma'nolilik. Umberto Eko, Italo Kalvino, Salman Rushdi kabi ijodkorlar asarlarida tarix, xotira, matn va haqiqat munosabatlarining qayta talqin qilinishi.

Zamonaviy adabiyotshunoslik va Yevropa, Amerika hamda o'zbek adabiyotining o'zaro aloqalari. Adabiyotni o'rganishning tarixiy-tipologik, qiyosiy, germeneytik, struktural-semiotik va narratologik yondashuvlari. Poststrukturalizm, postkolonial tadqiqotlar, gender tadqiqotlari, xotira tadqiqotlari, ekotantqichilik, madaniyatshunoslik va jahon adabiyoti konsepsiyalarining zamonaviy adabiyotshunoslikdagi o'rni. Yevropa, Amerika va o'zbek adabiyotlarining tarixiy-madaniy aloqalari, adabiy ta'sir va tipologik mushtaraklik, milliy o'ziga xoslik va adabiy an'ananing o'zaro munosabati. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlarning o'zbek adabiy tafakkuri va milliy adabiy jarayon taraqqiyotidagi o'rni. O'zbek adabiyotshunoslarining adabiyot tarixi, poetika, jadid adabiyoti, mumtoz adabiyot, qiyosiy-tipologik tadqiqotlar va zamonaviy adabiy-nazariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. – 2017-yil 4-avgust.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
4. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
5. Sirojiddinov Sh. Amir Alisher. – Toshkent: Adabiyot, 2023.
6. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy hayot yo'li. – 2025.
7. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 356 b.
8. Jo'raqulov U., Hamroyev K. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent, 2020.
9. Jo'raqulov U., Xalliyeva G., Qosimov A. Qiyosiy adabiyotshunoslik: darslik. – Toshkent, 2025.

10. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
11. Mamarasulova G.A. World Literature (A Journey Through 20th-Century Literature). – Tashkent: Bookmany print, 2025. – 164 p.
12. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 272 b.
13. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
14. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
15. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
16. Аракин В.Д. История английского языка. – Москва: Физматлит, 2003.
17. Baugh A.C., Cable T. A History of the English Language. 6th ed. – London: Routledge, 2013.
18. Barber C., Beal J.C., Shaw P.A. The English Language: A Historical Introduction. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
19. Kytö M., Pahta P. (eds.). The Cambridge Handbook of English Historical Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016.
20. Nevalainen T., Traugott E.C. (eds.). The Oxford Handbook of the History of English. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
21. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
